



## NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Ibragimov Zukhriddin Sayfutdinovich**

*Toshkent davlat texnika universiteti*

ORCID: 0009-0007-7014-9854

[zukhriddin@gmail.com](mailto:zukhriddin@gmail.com)

**Annotatsiya.** Zamonaviy xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan boshqaruv, texnologik yangiliklar, resurslardan samarali foydalanish va raqamli transformatsiya usullari o'rganilib, ularning mahalliy korxonalar uchun qo'llash imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotda AQSh, Norvegiya, Rossiya va boshqa ilg'or davlatlarning neft-gaz sanoati korxonalaridagi muvaffaqiyatli tajribalari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillari yoritildi. Maqola natijalari O'zbekistonning neft-gaz sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** neft-gaz sanoati, iqtisodiy samaradorlik, xorij tajribasi, resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ

**Ибрагимов Зухриддин Сайфутдинович**

*Ташкентский государственный технический университет*

**Аннотация.** Были изучены методы управления, технологических инноваций, эффективного использования ресурсов и цифровой трансформации, используемые в современной международной практике, а также дана оценка их применимости к местным предприятиям. В исследовании проанализирован успешный опыт предприятий нефтегазовой отрасли США, Норвегии, России и других развитых стран, выделены факторы, положительно повлиявшие на их экономическую эффективность. Результаты статьи послужат основой для разработки стратегий, направленных на повышение эффективности деятельности предприятий нефтегазового сектора Узбекистана.

**Ключевые слова:** нефтегазовая отрасль, экономическая эффективность, зарубежный опыт, ресурсосбережение, инновации, цифровая трансформация.

## FOREIGN EXPERIENCE IN INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF PRODUCTION ACTIVITIES AT OIL AND GAS INDUSTRY ENTERPRISES

**Ibragimov Zukhriddin Sayfutdinovich**  
Tashkent State Technical University

**Abstract.** *The methods of management, technological innovations, efficient use of resources and digital transformation used in modern international practice were studied, and their application for local enterprises was assessed. The study analyzed the successful experiences of the oil and gas enterprises of the USA, Norway, Russia and other advanced countries, and highlighted the factors that had a positive impact on their economic efficiency. The results of the article will serve to develop strategies aimed at increasing efficiency at oil and gas enterprises of Uzbekistan.*

**Keywords:** *oil and gas industry, economic efficiency, foreign experience, efficient use of resources, innovation, digital transformation.*

### **Kirish.**

Hozirgi davrda neft-gaz sanoati global iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruv tizimlaridan foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi omillar muhim hisoblanadi. Neft-gaz korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xorijiy tajribaning o'rganilishi ushbu tarmoqda raqobatbardoshlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikni oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSh, Yevropa, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya va boshqa davlatlarning neft-gaz sanoati bo'yicha tajribalari o'rganildi. Ushbu tajribalar ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va ekologik muvozanatni saqlash yo'nalishlarida erishilgan yutuqlarni ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Rossiyaning an'anaviy qazib olish hududlarida (G'arbiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, Ural-Volga bo'ylari) konlarning chuqurlashishi, zaxiralar hajmining kamayishi, geologik tuzilishning murakkablashuvi va qatlam bosimining pasayishi kuzatilmoqda. Koshmanning (2018) fikricha, mavjud va istiqbolli neft-gaz zaxiralarini samarali o'zlashtirish uchun ilg'or texnologiyalar va zamonaviy uskunalardan foydalanish zarur. Slanets neft konlarini o'zlashtirish zaruriyati AQShda gidravlik qatlam yorilish texnologiyasi orqali uning faol qazib olinishi bilan bog'liq. G'arbiy Sibirning slanets qatlamlari (Bajenova svitasi) zamonaviy texnologiyalar bilan atigi 3-5% darajasida foyda olish imkonini beradi. Shuning uchun qazib olish jarayonini samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash lozim deydi olim (Кошман, Селентьева, 2018).


Hozirgi vaqtda Yevropa va AQShda neft va gaz narxlarini nazorat qilish tizimi bekor qilingan, shuningdek, neft eksporti va importiga oid savdo to'siqlari ham bartaraf etilgan. Biroq, davlat tomonidan tartibga solish siyosatining umumiy liberallashtirish fonida AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Norvegiyada davlat proteksionizmi keng qo'llanilayotganini kuzatish mumkin (Reuters, 2025). Ushbu aralashuv ko'pincha subsidiya, soliq imtiyozlari yoki ichki energiya sanoatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy tizimlarni joriy qilish orqali namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniya Shimoliy dengiz neft va gaz ishlab chiqaruvchilariga kutilmagan daromadlar ustidan soliq joriy qilgan bo'lib, soliqdan olingan mablag'lar yangilanadigan energiya loyihalariga yo'naltirilgan. Shuningdek, Norvegiya neft sanoatini samarali boshqarish maqsadida keng qamrovli qonunlar va tartibga solish tizimlarini

ishlab chiqishda davom etmoqda, bu esa neft sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini va ahamiyatini aks ettiradi (IEA, 2025).

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan neft qazib oluvchi mamlakatlarda neft sanoatiga oid iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda asosiy maqsad sifatida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, qabul qilinadigan narxlarda yetarli neft ta'minotini yaratish va ekologik talablarni bajarish belgilangan bo'lsa, mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirishni neft eksportidan olingan valyuta kirimlari hisobiga amalga oshirishni maqsad qilgan (International Monetary Fund, 2025).

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Neft sanoatini soliqqa tortish eng muhim iqtisodiy instrumentlardan biridir. Soliq tizimlari anglosakson va fransuz konsessiyalariga asoslanadi (Jonston, 1994) (1-rasm) AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlarining soliq tizimlari foydani to'g'ridan to'g'ri soliqqa tortish tamoyili asosida qurilgan (Мещерякова, 1995).



**1-rasm. Neft solig'i tizimi turlari**

Ushbu tizim neft narxlarining jahon bozorlaridagi o'zgarishlariga hamda alohida konlarga xos texnik va iqtisodiy omillarga nisbatan barqaror hisoblanadi. Shuningdek, so'nggi yillarda soliqqa tortish tizimida xarajatlar darajasi va foyda normasi bilan muvofiqlashtirilgan tendensiyani kuzatish mumkin. Sotuv hajmiga faqat bitta soliq — royalti miqdori qo'llaniladi, bu tabiiy resurslarni qazib olishdan kelib chiqqan mulkdorning yo'qotishlarini qoplash uchun mo'ljallangan rental to'lovidir (Taxing energy, 1994).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'rib chiqilayotgan mamlakatlarning neft-gaz sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Bugungi kunda ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishlarini kamaytirish va toza energiya manbalariga bo'lgan talabning ortishi, neft-gaz sektorining ishlab chiqarish metodlari, siyosati va investitsiya strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi va ularga o'tish jarayoni, neft ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol qiluvchi mamlakatlarning energiya bozorlaridagi muvozanatni o'zgartirmoqda.

**Neft-gaz sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili**

N <sup>o</sup>	Mamlakat	Samaradorlikni oshirish usullari	Ijobiy jihatlar	Kamchiliklar yoki cheklovlar	Erishilgan natijalar
1	AQSh	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Ishlab chiqarish hajmini sezilarli oshiradi	Dastlabki sarmoyalar yuqori	Energiya samaradorligi 30% ga yaxshilandi
2	Germaniya	Avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish	Mehnat samaradorligini oshiradi	Kadrlarni qayta tayyorlash zarurati	Ishlab chiqarish jarayonida xatoliklar kamaydi
3	Yaponiya	Lean Production (Samarador boshqaruv) tamoyillarini joriy etish	Xomashyo isrofini kamaytiradi	Texnik infratuzilma talab etiladi	Xomashyo samaradorligi 20% ga ortdi
4	Rossiya	Energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash	Sarf-xarajatlarni qisqartiradi	Texnologiya ko'p kapital talab qiladi	Ishlab chiqarish xarajatlari 15% ga kamaydi
5	Norvegiya	Atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan strategiyalar	Barqarorlik va ekologik xavfsizlik	Amalga oshirish muddati uzoq	Ekologik zarar 25% ga qisqardi

Birinchiidan, ekologik talablarga javob berish va karbon izini kamaytirish maqsadida neft va gaz kompaniyalari o'z ishlab chiqarish usullarini takomillashtirishga va texnologiyalarni yangilashga majbur. Bu esa, o'z navbatida, yashil texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalarni oshirishga, energiya samaradorligini kuchaytirishga hamda yangi energiya manbalariga o'tishga olib kelmoqda. Masalan, neft-gaz kompaniyalari uchun barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bozordagi o'zgarishlarga moslashish uchun zaruriyatga aylanmoqda.

Ikkinchiidan, davlatlar neft sanoatiga bo'lgan siyosatini va bozorni tartibga solish mexanizmlarini qayta shakllantirmoqda. O'zgaruvchan energiya bozoridagi talablar va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish maqsadida, hukumatlar qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishning iqtisodiy va ekologik afzalliklarini inobatga olib, yangi normativ huquqiy tizimlarni joriy etishga intilmoqdalar. Jumladan, 2018-yilda Yevropada qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya to'g'risida"gi direktiva (RED II) 2030-yilgacha energiya iste'molining kamida 32 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olishni maqsad qilgan. (European Union, 2018). Bu, o'z navbatida, energiya resurslarining optimallashtirish va barqaror ta'minotiga xizmat qiladi.

Demak, global energiyaga o'tish nafaqat iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, balki neft-gaz sanoatining global bozor va xalqaro siyosatdagi o'rnini qayta baholashga ham olib kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, neft sanoatining kelajagi va uning iqtisodiy tizimdagi roli haqida yangi nazariy yondoshuvlarni yuzaga keltiradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Shunday qilib, xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali neft-gaz sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda dolzarb ahamiyatga ega. Neft-gaz sanoatini davlat tomonidan tartibga solish, milliy manfaatlarni himoya qilishda qat'iy pozitsiya, jahonning rivojlangan davlatlarida ushbu sohada qo'llanilayotgan ilg'or usullar, innovatsion texnologiyalar, ekologik xavfsizlik talablariga javob beruvchi siyosatlar va samarali boshqaruv tizimlari O'zbekiston neft va gaz kompleksining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, neft-gaz sanoati korxonalarida xorijiy tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish; iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida ekologik xavfsizlik talablari bilan uyg'un holda energiya ishlab chiqarishni rivojlantirish; davlat tomonidan milliy neft-gaz korxonalarini

rag'batlantiruvchi imtiyozli siyosatlar ishlab chiqilishi hamda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish orqali neft-gaz sohasida innovatsion yondashuvlarni kengroq tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

**Adabiyotlar /Литература/Reference:**

European Union (2018). Directive (EU) 2018/2001 of the European Parliament and of the Council of 11 December 2018 on the Promotion of the Use of Energy from Renewable Sources (Recast). Official Journal of the European Union, <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2018/2001/oj>.

IEA (2025) Xalqaro Energetika Agentligi. "Norvegiya neft xavfsizligi siyosati" IEA, [www.iea.org/articles/norway-oil-security-policy](http://www.iea.org/articles/norway-oil-security-policy). 2025-yil 6-yanvarda murojaat qilindi.

International Monetary Fund (2025). Economic Diversification in Oil-Exporting Arab Countries. IMF, 2016, [www.imf.org/external/np/pp/eng/2016/042916.pdf](http://www.imf.org/external/np/pp/eng/2016/042916.pdf). Accessed 6 Jan.

Jonston D. (1994) Petroleum Fiscal systems and Productions Sharing Contracts. Penn Well Books, P. 103-124.

Reuters (2025). "The Fall of UK North Sea Oil and Rise of Offshore Wind." Reuters, 3 Jan. 2025, [www.reuters.com/world/uk/fall-uk-north-sea-oil-rise-offshore-wind-2025-01-03](http://www.reuters.com/world/uk/fall-uk-north-sea-oil-rise-offshore-wind-2025-01-03). Accessed 6 Jan. 2025.

Taxing energy (1994): Why and how. IEA/OECD Paris, P. 17-29.

Кошман, А.В., и Селентьева Т.Н. (2018) Зарубежный и отечественный опыт государственного стимулирования инновационного развития нефтегазового комплекса. /Российский экономический интернет-журнал, № 4, с. 57.

Мещерякова О.В. (1995) Налоговые системы развитых стран мира. Справочник. М: Фонд «Правовая культура», Стр. 5-1 1, 28-32.